



2023/3

TA'LIM VA INNOVATION TADQIQOTLAR

ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH

TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR
ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH



Muassis: Buxoro davlat universiteti Fan va ta'lim MChJ Bosh muharrir: Ma'murov Bahodir Baxshullayevich Jamoatchilik kengashi raisi: Xamidov Obidjon Xafizovich, Buxoro davlat universiteti rektori Tahririyat kengashi raisi: Maxmudov Mels Hasanovich Mas'ul kotib: Akramova Gulbahor Renatovna Texnik muxarrir: Davronov Ismoil Ergashevich Tahririyat manzili: Buxoro shahar, Q.Murtazoyev ko'chasi, 16-uy Telefon: +998(90)744-00-22 E-mail: eirjurnal2020@gmail.com Jurnalning elektron sayti: www.interscience.uz Jurnal OAK Rayosatining 2021 yil 30 sentyabrda 306/6-son Qarori bilan PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA, FILOLOGIYA, TARIX FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ruyxatiga kiritilgan Bosishga ruxsat etildi: 28.03.2023 y. Qo'oz bichimi 60x84 1/8. b/t.12,5. Buyurtma raqami 1.23 «FAN VA TA'LIM» nashriyotida chop etildi. Buxoro shahar Jurnal 28.07.2021 yilda 9305 raqami bilan O'zbekiston Ommaviy axborot vositalari davlat ro'yxatidan o'tgan Jurnal 2020 yilda tashkil topdi va 2 oyda 1 marta chop etildi. 2021 yil noyabr oyidan boshlab har oyda 1 marta o'zbek, rus va ingliz tillarida chop etiladi «Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-metodik jurnalidan ko'chirib bosish tahririyatning roziligi bilan amalga oshiriladi Maqolada keltirilgan faktlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir	07.00.00 – TARIX FANLARI	
	Allamuratov Sh. A. XIX Asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlariga oid manbalarda Amudaryo suv yo'lining yoritilishi	7
	Babayev S. T. Jahon madaniy merosi: xalqaro prinsiplar va tashkilotlar, madaniy merosni saqlash strategiyasida YUNYESKOning fundamental roli.	13
	Haitov J. Sh. O'zbekistonda yangi ekin navlarini yetishtirishda ilmiy muassasa va stansiyalarning faoliyati tarixiga doir	21
	Nazarov A. A. Turkiston maktablarining tashkil etilishi yo'nalishlari va pedagogik xususiyatlari (XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlari)	28
	Tog'ayev Z. T. Farg'ona viloyatida xayr-ehson jamiyatlari faoliyati tarixi (XIX asr oxiri - XX asr boshlari)	34
	10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
	Bo'riyev I. E. O'zbek tilida leksik - semantik munosabatlarga ko'ra iboralar tavsifi	39
	Ismoilov Q. R.A.Nikolson – tasavvufshunos (R.Nikolsonning hayoti, ijodi va tasavvuf ta'limotiga munosabati)	45
	Juraev Z. N. Some major meanings of the numeral «ming» (thousand) in the proverbs of english and uzbek	50
	Nazarova Dunyogozal Baxtiyarovna Hujjat va hujjatshunoslikning umumiy qonuniyatini ishlab chiqishdagi muammolar	55
	Tursunov R. M. G'azal va taxmis: ijtimoiy dard hamda ishqiy iztirob kesishgan sarhad	60
	Туйлиева Л. А. Методы исследования глаголов состояния	65
	13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
	Achilova M. S. Qo'l mehnati orqali o'quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishning pyedagogik xususiyatlari va omillari	75
	Akramova G. R. O'quvchida tanqidiy tafakkurning rivojlanishi – ijtimoiy munosabatlarga tayyorlik kafolati	82
	Axatkulov A. A. Dasturiy ta'lim vositalari talabalar ilmiy-tadqiqot kompetentsiyasini shakllantirish vositasi sifatida	88
	Aytbayev D. T. Intonatsiya lisoniy faktor sifatida mutaxassislik fanlar orqali texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish	92
	Axmedova Z. A. Teatr san'ati - yoshlar ma'naviy olami, ong va tafakkurini rivojlantirish vositasi	95
	Berdaliyeva G. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari pyedagog kadrlar malakasini oshirish tizimining axborot-ta'lim muhiti	99



“ONA TILI O‘QISH METODIKASI” MODULINI KREDIT-MODUL TIZIMI ASOSIDA O‘QITISH IMKONIYATLARI

*Tog‘ayeva Umida Shavqi qizi,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
<https://orcid.org/0000-0002-2236-963X>*

Annotatsiya: ushbu maqolada Ona tili o‘qitish metodikasini kredit-modul tizimida o‘qitish imkoniyatlari, o‘qitish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari o‘z ifodasini topgan. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar kredit-modul tizimida ta’limni tashkil etgan holda yuqori natijalarga erishmoqda. Chunki bu tizimning jahon ta’lim tizimlarida nufuzi ortib bormoqda. Bunga bir qator sabablar mavjud. Masalan, fanlarning majburiy va tanlov fanlarga ajratilganligi va tanlov fanlari har bir talabaning individual tanlovi asosida tashkil etilishi. Rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirish uchun qilinayotgan harakatlar tizimida ham ushbu tizimdan foydalanish muhim ahamiyat kasb etgan. Mamlakatimizda ham ushbu tizim joriy etilganidan so‘ng oliy ta’limdagi barcha fanlarda jarayonlar ushbu tizimda olib borilyapti. Xususan ona tili o‘qitish metodikasida ham bu tizimning alohida xususiyatlari mavjud. Maqolada ona tili o‘qitish metodikasini kredit-modul tizimi orqali tashkil etish jarayoni, talabalarni reyting ballari orqali baholash, ayniqsa, fan yuzasidan mustaqil ta’lim ulushini oshirish haqida mulohaza yuritilgan. Ona tili o‘qitish metodikasida kredit modulini qo‘llash yaxshi samara berishi, rivojlangan va bu tizimning fanni o‘qitishdagi imkoniyatlari ixcham fikrlar asosida xulosalangan.

Kalit so‘zlar: kredit-modul tizimi, kredit, modul, o‘qish, yozish, tinglab tushunish, gapirish, kredit soati, an’anaviy ta’lim, noan’anaviy ta’lim, modulli o‘qitish texnologiyasi, mustaqil fikrlash.

МЕТОДИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ УЗУЧЕНИЯ РОДНОГО ЯЗЫКА НА БАЗЕ КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЫ

*Тогаевой Умиды Шавки кизи,
докторант Бухарский государственный университет*

Аннотация: в данной статье выражены возможности методики обучения родному языку в кредитно-модульной системе, особенности учебного процесса. Сегодня развитые страны добиваются высоких результатов, организуя обучение по кредитно-модульной системе. Потому что влияние этой системы в мировых системах образования возрастает. Есть ряд причин для этого. Например, предметы делятся на обязательные и факультативные предметы, а факультативные предметы организованы на основе индивидуального выбора каждого ученика. Использование этой системы стало важным в системе усилий по вступлению в ряды развитых стран. После введения этой системы в нашей стране процессы во всех субъектах высшего образования ведутся в этой системе. В частности, есть особенности этой системы в методике обучения родному языку. В статье рассматривается процесс организации методики обучения родному языку через кредитно-модульную систему, оценивание учащихся через рейтинговые баллы, особенности увеличения доли самостоятельного обучения в области науки. Использование кредитного модуля в методике обучения родному языку эффективно, делается вывод на основе передовых и возможностей данной системы в преподавании естественных наук.

Ключевые слова: кредитно-модульная система, кредит, модуль, чтение, письмо, аудирование, говорение, кредитный час, традиционное обучение, нетрадиционное образование, модульная технология обучения, самостоятельное мышление.



TRAINING OPPORTUNITIES FOR THE «MOTHER LANGUAGE LEARNING METHODOLOGY» MODULE BASED ON THE CREDIT-MODULE SYSTEM

Togayeva Umida Shavki kizi,
Doktoral student of Bukhara State University

Abstract: in this article, the possibilities of teaching the mother tongue teaching methodology in the credit-module system, the specific features of the teaching process are expressed. Today, developed countries are achieving high results by organizing education in the credit-module system. Because the influence of this system in world education systems is increasing. There are a number of reasons for this. For example, subjects are divided into mandatory and elective subjects and elective subjects are organized based on the individual choice of each student. The use of this system has become important in the system of efforts to join the ranks of developed countries. After the introduction of this system in our country, processes in all subjects of higher education are being conducted in this system. In particular, there are special features of this system in the methodology of teaching the mother tongue. The article discusses the process of organizing the methodology of teaching the mother tongue through the credit-module system, evaluating students through rating points, especially increasing the share of independent education in the field of science. The use of the credit module in the method of teaching the mother tongue is effective, it is concluded on the basis of the advanced and the possibilities of this system in the teaching of science.

Key words: credit-module system, credit, module, reading, writing, listening comprehension, speaking, credit hour, traditional education, non-traditional education, modular teaching technology, independent thinking.

Kirish. Xalqaro rivojlangan davlatlarda ona tili o'qitish metodikasi keyingi yillarda bir qator yutuqlarni qo'lga kiritayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bizga bugungi kungi xalqaro tajribalardan ma'lum bo'lyaptiki, kredit-modul tizimi o'zining dunyo tan olayotgan bir qancha afzalliklari bilan ajralib turmoqda. Amalda foydalanilgan mustaqil ta'lim o'quv topshiriqlari avvaldan belgilangan ma'lum mezonlar asosida rivojlantiriladi. O'zbekistonda ham oliy ta'lim tizimida modul-kredit tizimiga o'tish Modul-kredit tizimi jarayonida islohotlar kechmoqda. Bunga tayyor bo'lish uchun talabalarda mustaqil ta'lim topshiriqlari bilan bog'liq ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish zarur. Chunki bu tizimda mustaqil ta'limga kata e'tibor qaratiladi. Buni mustaqil ta'lim uchun ajratilgan soat miqdorining oshganligi va topshiriqlarning rang-barangligiga alohida e'tibor qaratilganligi bilan izohlashimiz mumkin. Tilshunoslik fanlari kredit-moduli ona tili o'qitish metodikasi, lingvodidaktik kompetensiyaviy yondashuvga asoslanmoqda, dars mashg'uloti jarayonida lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish nutqiy kompetensiyalarni rivojlanishiga olib kelish ko'zda tutilmoqda. Xalqaro tajribalar asosida til o'rganishga qo'yilgan aniq talablar asosida (tinglab tushunish), (gapirish), (o'qish) va (yozish) malakalari rivojlantiriladi. Talabalarda bunday malakalarni rivojlantirish nafaqat ona tilini o'rganish, balki xorijiy tillarni o'rganish uchun ham asos sifatida xizmat qiladi. Ona tili modulini o'qitishda mazkur yondashuvdan biroz ijodiyroq foydalanish maqsadga muvofiq, bizningcha. Chunki talabalar tilning tashuvchilari sifatida muayyan nutqiy ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan holda OTM ga keladilar. Ona tili o'qitish metodikasining didaktik vazifasi talabalarda eshitganlarni to'g'ri tushuna olish, adabiy tilda ravon mantiqan izchil gapira olish, matnni o'qib tushuna olish hamda to'g'ri va mazmunli yoza olish ko'nikmalarini takomillashtirish lozim. Bunda, asosan, adabiy til me'yorlariga ahamiyat berish, uslubiyotni bilish va unga amal qilish, ona tiliga oid barcha tushunchalarni metodik jihatdan eng to'g'ri, ravon, sodda usullarda yetkazib berish, bundan tashqari yetkazilgan bilimlar asosida talabalar yoki o'quvchilarning



mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, aqliy tafakkurini oʻstirish, mantiqiy va ijodiy fikrlashga oʻrgatish asosiy oʻrinda turadi.

Kredit tizmi dastlab XVIII va XIX asrlarda AQSh universitetlarida joriy etilgan boʻlib, oʻquv jarayonlarini liberalizatsiya qilish, talabaning haftalik akademik yuklamasini belgilab berish maqsadida yaratilgan. 1869-yilda Garvard universiteti prezidenti, Amerika taʼlimining taniqli arbobi Charlz Uilyam Eliot “kredit soati” tushunchasini fanga kiritadi. Shunday qilib, 1870-1880-yillarda kredit soatlari bilan oʻlchanadigan yangi bir tizim joriy qilinadi. Kredit tizimi bilan oʻqish va oʻquv dasturlarini oʻzlashtirish talabalarga oʻquv jarayonini mustaqil ravishda rejalashtirish, uning sifatini nazorat qilish, taʼlim texnologiyalarini takomillashtirish uchun katta imkoniyat yaratib berdi. Chunki talaba bu tizimda maʼlum maʼnoda oʻquv jarayonini rejalashtira oladi, kelajagi uchun oʻziga kerakli bilimlar bazasi yaratish uchun harakat qiladi. Bundan tashqari bu tizimda kredit toʻplash oʻlchovi ham kiritilgan. Kredit toʻplash oʻlchovining kiritilishi talabaga katta erkinlik berish bilan bir qatorda, kelajakda tanlagan sohasining raqobatbardosh mutaxassisi boʻlib yetishishi uchun akademik jarayonni mustaqil rejalashtirish imkonini ham taqdim etdi. Shu bilan birgalikda bu orqali baholash tizimi va taʼlim texnologiyalari ham takomillasha boradi.

Metodlar

Bolonya deklaratsiyasida koʻzda tutilganidek, kredit-modul tizimi aynan mustaqil taʼlimga urgʻu qaratgani holda, asosan, ikkita funksiyani bajarishga xizmat qiladi:

birinchisi, talabalar va oʻqituvchilarning mobilligini, yaʼni bir oliy taʼlim muassasasidan boshqa OTMga toʻsiqlarsiz, erkin ravishda oʻtishini (oʻqishni yoki ishni koʻchirish)ni taʼminlaydi;

ikkinchisi, talabaning tanlagan taʼlim yoʻnalishi yoki mutaxassisligi boʻyicha barcha oʻquv va ilmiy faoliyati uchun akademik yuklama — kredit aniq hisoblab boriladi. Kredit yigʻindisi talabaning tanlagan dasturi boʻyicha nimani qancha oʻzlashtirganligini namoyon etadi.

Bu tizimda mobillik tushunchasiga ham alohida eʼtibor qaratilgan boʻlib, bu soʻzning oʻzi ham 2 maʼnoda qoʻllaniladi: oʻqituvchi va talaba. Bunda oʻqituvchi yoxud talaba boshqa bir oliy taʼlim muassasasiga maʼlum bir vaqt davomida oʻqishi yoki ishini koʻchiradi. U yerning taʼlim tizmi bilan tanishadi, ilgʻor metodikalarni oʻrganadi, farqli jihatlarini tahlil qiladi. Bu yerda tajriba almashish gʻoyasi yetakchilik qiladi, albatta.

Kredit-modul tizimi taʼlimni tashkil etish jarayoni boʻlishi bilan birgalikda, oʻqitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit oʻlchovi asosida baholash modeli ham hisoblanadi. Bu tizimni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarining mustaqil ishlashini taʼminlash va talabalar bilimini reyting asosida baholash.

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar eʼtirof etiladi:

- ☐ oʻquv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;
- ☐ bitta fan, kurs (kredit)ning qiymatini aniqlash;
- ☐ talabalar bilimini reyting bali asosida baholash;
- ☐ talabalarga oʻzlarining oʻquv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;
- ☐ taʼlim jarayonida mustaqil taʼlim olishning ulushini oshirish;
- ☐ taʼlim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisa qoʻyilgan talabdan kelib chiqib oʻzgartirish mumkinligi.

Yuqoridagilar dars mashgʻulotlarini nafaqat oʻqitishni innovatsion taʼlim texnologiyalari asosida olib borish, balki talabadan mustaqil oʻqib-oʻrganish, taʼlimga yangicha munosabatda boʻlish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib,

zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallash, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatishdan iboratdir. Muxtasar aytganda, mazkur tizim talabaning kasbiy rivojlanishi va kamolotiga yo'naltirilgan. Ilm sohibining butun hayoti davomida bilim olishini ta'minlashga hamda mehnat bozori va zamonaviy talablarga javob bera oladigan inson kapitalini shakllantirishga qaratilgandir.

Keling, shu o'rinda modul va kredit tushunchalari mohiyatiga qisqacha to'xtalib o'tsak.

Modul — bu, bir nechta fan hamda kurslar o'rganiladigan o'quv rejasining bir qismi. U talabalarda ma'lum bir bilim va ko'nikma hosil qilish, tahliliy-mantiqiy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo'lishiga qaratilgan bir nechta fanlar (kurslar) majmui hisoblanadi. Bunda o'qituvchi o'quv jarayonini tashkil qiladi, jonli, video hamda audio ma'ruzalar o'qiydi, talabaning faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi. Talaba esa mavzuni mustaqil o'rganadi hamda berilgan topshiriqlarni bajaradi.

Xorijiy tajribalarga asoslanadigan bo'lsak, kredit-modul tizimida o'quv jarayoni har semestrda 2-4 tagacha moduldan iborat bo'lishi belgilangan. Modulda jamlangan fanlar osondan murakkablik sari, nazariy-uslubiy fanlardan amaliy fanlarga qarab hamda mantiqiy jihatdan bir-birini o'zaro uzviy to'ldirish prinsipi asosida shakllantiriladi. Talaba mutaxassis bo'lib shakllanishi uchun nafaqat axborotlar, balki ularni qayta ishlash, amaliyotga joriy qila olish —malakasiga ega bo'lishi talab etiladi.

Modulga asoslangan o'quv dasturlari maxsus sxema asosida ishlab chiqiladi va quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi:

- o'quv maqsadlari hamda vazifalarning to'la holda ochib berilishi;
- talabaning fanni (kursni) boshlashi va tugatishidan keyingi orttirishi lozim bo'ladigan malakasiga qo'yiladigan talablar;
- modul tarkibiga kirgan har bir fanning qisqacha mazmuni (sillabus), ya'ni ma'ruzalar mavzulari, seminar va amaliy mashg'ulotlarning rejasi, mustaqil ta'limni baholash uchun mo'ljallangan topshiriqlar;
- o'qitishning qisqacha bayoni: ta'lim berish usul hamda vositalari; bilimlarni baholashning usul va shakllaridan iborat.

Modul asosida o'qitish tizimida talabalar bilimi, malakasi hamda ko'nikmasini baholashda reyting baholash tizimidan foydalaniladi. Unda talabaning barcha o'quv faoliyati, ya'ni auditoriya va auditoriyadan tashqarida olgan, o'zlashtirgan bilimlari ball berish orqali baholanadi.

Kredit (credit) esa talabaning alohida ta'lim yo'nalishi yoki dasturi (kurs) bo'yicha fanlarni o'qib o'rganishi va o'zlashtirishi uchun sarflangan o'quv yuklamasining (vaqtning) o'lchov birligidir. Kredit — talabaning me'yoriy hujjat bilan belgilangan, odatda bir hafta davomida auditoriyada va mustaqil ravishda ta'lim olishi uchun ajratilgan minimal vaqt o'lchovidir. Talabaga kredit ma'lum bir fandan belgilangan topshiriqlarni bajarib, yakuniy imtihondan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng beriladi.

Har bir talaba kelajakda tanlagan yo'nalishi va mutaxassisligi bo'yicha diplomga ega bo'lishi uchun kreditlarni yig'ib borishi lozim. To'plangan kredit talabaga butun umr davomida o'zining malakasini oshirib borish yoki qo'shimcha oliy ma'lumot olishiga xizmat qilib boraveradi. Iqtisodiy tilda aytganda, to'plangan kredit talabaning akademik "aktiv"ga aylanib boradi.

Natijalar

Oliy ta'limda har bir fan bugungi kunda kredit-modul tizimi asosida olib borilyapti. Xususan, ona tili o'qitish metodikasi haqida fikr yuritadigan bo'lsak, bu fanni o'qitishdan maqsad — talabalarni boshlang'ich sinflarda ona tili fanining mazmuni va vazifalari, o'qitish usullari, ta'limiy vositalar bilan tanishtirish va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish bo'yicha bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirish hamda amaliyotga tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat. Bu fanning vazifalari sifatida esa talabalarining nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, boshlang'ich sinflar ona tili ta'limi jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy

dunyoqarashini shakllantirishdan iborat. Shuningdek, davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi, maktab darsliklarining mazmuni va metodik tuzilishi bilan tanishtirish; boshlang'ich ta'limda o'qitishning zamonaviy ilg'or metod hamda usullarini o'rgatish vazifalarini bajaradi.

Ona tili o'qitish metodikasi fani majburiy modul turiga kiradi. Ta'lim tili o'zbek, rus, qozoq tillarida olib boriladi. Bu fanga umumiy 450 soat ajratilgan bo'lib, auditoriya mashg'ulotlari 224 soatni, mustaqil ta'lim 226 soatni tashkil etadi. Har 30 soat 1 kreditni tashkil etishini inobatga olgan holda ECTS kreditlar soni 15 kreditni tashkil etadi.

Ona tili o'qitish metodikasidan quyidagi ta'lim texnologiyalari va metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq:

- ☐ ma'ruzalar;
- ☐ interfaol keys-stadilar;
- ☐ seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- ☐ guruhlarda ishlash;
- ☐ taqdimotlar qilish;
- ☐ individual loyihalar;
- ☐ jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

Ona tili o'qitish jarayonida kredit texnologiyasidan foydalanish ta'lim oluvchilarga ishchi o'quv rejaga kiritilgan tanlov fanlarini tanlash, bu orqali individual o'quv rejasini shakllantirishda bevosita ishtirok etish huquqini beradi. Ularga, nafaqat fanlarni, balki professor-o'qituvchilarni ham tanlash erkinligi beriladi. Talabalarga fanlarni tanlash imkoniyatining berilishi ijobiy hol sanaladi. Bu o'quv jarayonlarini baholashning o'ziga xos qiymat ko'rsatkichi bo'lib ham hisoblanadi. Fan yuzasidan ona tili o'qitish metodikasi fanidan kreditlarni olish uchun quyidagi talablar qo'yiladi:

1-jadval

Ona tili o'qitish metodikasi fanidan kreditlarni olish uchun talablar

Ona tili o'qitish metodikasi fanidan kreditlarni olish uchun talablar			
Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish	O'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish	Oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish	Yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish

Yuqorida keltirilgan talablardan kelib chiqib, talaba ona tili o'qitish metodikasi faniga oida barcha nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirishi, tahlil qilishi va natijalarini to'g'ri chiqara olishi lozim. Semestrda barcha jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritishi, oraliq nazorat shakllarida berilgan barcha topshiriq va vazifalarni, fan yuzasidan tuzilgan test va savollarga javob bera olishi hamda yakuniy nazorat bo'yicha yozma ish shaklida nazoratni belgilangan talablar asosida yoza olishi kerak.

Modul-kredit tizimida ta'lim shakllarining qiyosiy tahlili

2-jadval

OTM pedagoglarining didaktik vazifasi. An'anaviy ta'lim shaklida.	Dars mashg'uloti metodikasi. Noan'anaviy ta'lim shaklida.
An'anaviy ta'lim shaklida, modul-kredit tizimi uchun tilshunoslik fanlaridan mustaqil ta'lim topshiriqlari tuzish va topshiriqlar bilan ishlashda qulay va amaliy ahamiyatga ega didaktik ta'lim metodlari asosida darsliklar yaratish va shu asosida dars mashg'ulotlar olib borish. Og'zaki, ko'rgazmali, amaliy (seminar, laboratoriya va ekskursiya)	Noan'anaviy ta'lim shaklida, qulay va amaliy ahamiyatga ega didaktik-pedagogik maqsad asosida darsliklar yaratish va shu asosida dars mashg'ulotlari olib boorish; Modul-kredit tizimida Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarning farqlariga tavsif. Insert, FSMU, VENN, Klaster, BBB, T-sxema, 6x6x6 va hokazo.
Oliy ta'limda modul-kredit tizimi uchun tilshunoslik fanlaridan mustaqil ta'lim topshiriqlari tuzishning metodik mexanizmini joriy etish.	Talabalarni mavzu doirasida har bir mavzuga oid mustaqil o'quv topshiriqlari tuzishning 10tadan murakkab savollar (javobi bilan) tuzishga undash.
Oliy ta'limda ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarni tajriba asosida darsliklar mazmunida, ona tili dars mashg'ulotlarida sinab ko'rish va olingan xulosalarni umumlashtirish.	Tezkor savol-javob interfaol ta'lim metodlari asosida olib boriladi.

Modul-kredit tizimida 1 kredit o'rtacha 30-36 akademik soatlik o'quv yuklamasiga tengligi maqsadga muvofiq. Ya'ni talaba muayyan fandan tegishli kreditlarni to'plashi uchun ma'lum miqdordagi o'quv yuklamasini o'zlashtirishi zarur. OTM modul-kredit tizimi va ARM faoliyati asosida OTMda mustaqil ta'lim topshiriqlari faoliyatini takomillashtirishning integratsion-metodik yondashuvi, Oliy ta'lim muassasalari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish, mustaqil boshqaradigan OTM faoliyati tahlil etilgan. Birinchi marta akademik kreditlar AQSh universitetlarida joriy etildi. Miqdoriy ekvivalentlarning tashkil etilishi ta'lim mazmuni va kredit bo'linmalari asosida o'quv dasturlarini o'zlashtirish darajasi talabalarga o'quv jarayonini mustaqil rejalashtirishga ruxsat berildi., ta'lim sifatini nazorat qilish va baholash tizimlariga tub o'zgartirishlar kiritish asosida ta'lim jarayonini metodik takomillashtirish uchun shart-sharoitlar, texnologiyalar yaratildi.

Xulosa va tavsiyalar

Xulosa qilib aytganda modulli o'qitish texnologiyasi, asosan, ona tili ta'lim mazmunida faoliyatlik, tizimli kvantlash, qiziqtirish, modullilik, muammolilik, kognitiv vizuallik, xatoliklarga tayanish tamoyillariga muvofiq ishlab chiqilishi muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda kredit-modul tizimi asosida o'quv jarayonlarini tashkil etish muhim ahamiyatga egadir. Bunda eng katta e'tibor mustaqil ta'limga ham qaratiladi. Mustaqil fikrlashga o'rgatish – har qanday o'quv fani bo'yicha darslikning asosiy didaktik xomashyosi matnlar, savol-topshiriqlar, mashqlar yoki mantiqiy topshiriqlar hisoblanadi. Shu o'quv materiallari asosida talabani mustaqil fikrlashga o'rgatish uchun, avvalo, ularga darslik muallifining shu mavzu bo'yicha ko'zlangan maqsadini, dars mashg'uloti jarayonida o'qituvchi va talaba munosabatini to'g'ri shakllantirish lozim. O'qituvchi mustaqil fikrlashga o'rgatishda yetakchilik qiladigan



Журнал Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан 2020 йил 6 октябрда ўтган.

Журнал ҳар ойда бир марта ўзбек, рус ва инглиз тилларида нашр этилади.

Журналнинг ҳажми 60x84, 1/8, А-4;

«Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar» халқаро илмий-методик журнали 2020 йил октябрдан нашр этилмоқда.

Педагогика, психология, филология ва тилшунослик, математика, физика ва механика, техника фанлари, табиатшунослик, тарих ва фалсафа, туризм ва иқтисодиёт, ахборот коммуникацион технологиялари, география соҳалардаги илмий ва илмий-услубий материалларни ўз ичига олади. Нашр қилинган материаллар муаллифлари Ўзбекистон Республикаси ҳамда яқин ва узоқ хорижнинг етакчи олимлари, тадқиқотчи-изланувчилари.

Журналнинг калит сўзлари:

Олий педагогик таълим назарияси ва амалиёти; умумий ва махсус педагогика ва психология, педагогика ва инновация, интеграция, Ўзбекистон, Россия ва хорижий мамлакатларнинг таълим тизими; таълим жараёни; кўп маданиятли ва минтақавий таълим; III Ренессанс, XXI асрдаги таълим; таълим ва тарбия соҳасидаги миллий ва қадрият устуворликлари; таълим сифатини мониторинг қилиш; узлуксиз педагогик таълим тизими; таълим дастурлари; умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълимининг давлат таълим стандартлари; ўқитувчиларни тайёрлаш тизимидаги таълим технологиялари.

Гувоҳнома рақами № 8882
Бош муҳаррир: Б.Б.МАЪМУРОВ

Босишга рухсат этилди 28.03.2023. Буюртма №3347.
«Бухоро вилоят босмахонаси» МЧЖда чоп этилди.

ISSN 2181-1717 (E)



ISSN 2181-1709 (P)



